

APPLYING SECOND LANGUAGE ACQUISITION THEORIES TO ENHANCE SPEAKING SKILLS IN PRIMARY EDUCATION STUDENTS

Mokhira Yunus qizi JURAEVA

Teacher, 2nd year doctoral student

Department of English Language Teaching Methodology and Practice

Karshi State University

Karshi, Uzbekistan

SLA NAZARIYASINING BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISHGA TATBIQI

Mohira Yunus qizi JO'RAYEVA

O'qituvchi, 2-kurs doktoranti

Ingliz tili o'qitish metodikasi va amaliyoti kafedrasи

Qarshi davlat universitetи

Qarshi, O'zbekiston

ПРИМЕНЕНИЕ ТЕОРИИ УСВОЕНИЯ ВТОРОГО ЯЗЫКА (SLA) ДЛЯ РАЗВИТИЯ РЕЧИ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мохира Юнус кизи Джурاءва

Преподаватель, докторант 2 курса

Кафедра методики и практики преподавания английского языка

Каршинский государственный университет

Карши, Узбекистан joraeva.mohira@mail.ru

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Jo'ravayev M.Y. SLA nazariyasining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining nutqini rivojlanirishga tatbiqi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 4. — B. 116-131.

<https://doi.org/10.36078/1730099444>

Received: May 30, 2024

Accepted: August 17, 2024

Published: August 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. Teaching foreign languages to students of non-philological education based on a comprehensive approach envisages paying special attention to the development of oral speech at all stages of the continuous education system, especially in higher education. Today, the need to prepare students for international and intercultural relations and international cooperation and the need for teachers-pedagogues to be regularly informed about the news related to their field makes it essential for students to learn foreign languages, particularly English. In determining the topic and object of this research work, the process of teaching foreign languages in various higher educational institutions of our country was analyzed. Various conferences were attended in the framework of the topic. Based on these sources, the article presents a number of reasons justifying the relevance of our research, including the fact that in the latest decisions of the President of the Republic of Uzbekistan, the emphasis on learning a foreign language has been determined. The content and principles of the comprehensive approach to the consistent organization of the implementation of these tasks were analyzed. The advantages and disadvantages of a comprehensive approach were studied in the development of methodical support for the development of speaking skills of primary education students in learning English.

Keywords: integrative approach; speech competence; speech development; students; primary education; foreign language; complex approach.

Annotatsiya. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga xorijiy tilni kompleks yondashuv asosida o'qitish uzlusiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, oliv ta'limda ham og'zaki nutqni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda ta'lim oluvchilarni xalqaro hamkorlik aloqalariga tayyorlash davr talabi bo'layotganligi, o'qituvchi-pedagoglarning o'z sohasiga oid yangiliklardan muntazam xabardor bo'lib turishlari kerakligi talabalarning chet tillar, xususan, ingliz tilini o'rganishni va o'rganiyotgan xorijiy tilda muloqot qilish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonini izchil tashkil etishda kompleks yondashuvning mazmuni va mohiyati, tamoyillari tahlil qilindi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining nutqiy ko'nikmalarini ingliz tilini o'rganish jarayonida rivojlantirishga oid metodik ta'minotni ishlab chiqishda kompleks yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari o'rganildi.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv; nutq kompetensiyasi; nutqni rivojlantirish; talabalar; boshlang'ich ta'lim; chet tili; kompleks yondashuv.

Аннотация. Обучение иностранному языку студентов нефилологического образования на основе комплексного подхода предусматривает уделение особого внимания развитию устной речи на всех этапах системы непрерывного образования, особенно в высшей школе. Сегодня необходимость подготовки студентов к международному сотрудничеству, а также необходимость регулярного информирования учителей-педагогов о новостях, касающихся их области, делает важным изучение студентами иностранных языков, особенно английского. и направлено на развитие коммуникативных навыков и компетенций на изучаемом иностранном языке. Проанализированы содержание, сущность и принципы комплексного подхода к последовательной организации реализации этих задач. Изучены преимущества и недостатки комплексного подхода при разработке методического обеспечения развития разговорных навыков учащихся начальных классов в процессе изучения английского языка.

Ключевые слова: интегративный подход; речевая компетентность; речевое развитие; учащиеся; начальное образование; иностранный язык; комплексный подход.

Kirish

Respublikamizda turlinofilologik yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalarning xorijiy tillardagi nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratila boshlandi. Jumladan, boshlang'ich ta'limga oid muhim izlanishlar va yaratishlar asosan ingliz tilida ekanligi, bolalar psixologiyasi va yosh xususiyatlariga oid nodir asarlarning chet tilida ekanligi, o'qituvchi-pedagoglarning shu sohaga oid yangiliklardan muntazam xabardor bo'lib turishlari zarurati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan chet tillarni, xususan, ingliz tilini yaxshi bilishlarini taqozo etadi. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining chet tildagi nutqini rivojlantirish ularning kasbiy layoqati oshishiga bevosita ijobjiy ta'sir ko'rsatib, ularning ilmiy, kasbiy-sohaviy bilimlarini va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Oliy o'quv yurtlariningnofilologik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun nutq madaniyatini tashkil etish bilan bog'liq masalalari yetarlicha ishlab chiqilmagan, bu jarayonda shakllanish va yangilanish davom etmoqda.

Bo‘lajak pedagoglarning nutqiy ko‘nikmasini rivojlantirish o‘quv jarayoni, ya’ni darslarni sifat va mazmun jihatdan boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Pedagog nutq madaniyatidan boshqa hech bir fan nutq kompozitsiyasini, nutq stilistikasini, nutq janrlarini, polemikani o‘rgata olmaydi, kasbga oid muloqot madaniyatining shakllarini rivojlantirmaydi; ritorik nuqtayi nazardan muloqot madaniyatining shakllanganligi lingvistik matnlarni tahlil qila bilish, nutq mazmunini yaratish, nutqni tartibga solish, talaffuz qilish, eslab qolish, yozish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, ritorik ta’limni til tarbiyasi bilan to‘ldirib bo‘lmaydi” (1, 37).

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 6-may kuni chet tillarni o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda: “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimini yo‘lga qo‘yish vaqtisi soati keldi. Biz raqobatbardosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”, — dedilar (31). Buning uchun, eng avvalo, nofilologik ta’lim yo‘nalishi hisoblangan boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbga oid ko‘nikmalarini rivojlantirishni ingliz tili darslari jarayonida amalga oshirish samarali istiqbollarga ega. Zamonamizning mashhur notiqlari: *Franklin Ruzvelt, Billi Graham, Barbara Jordan, Ronald Reygan, Martin Luter King, Hillary Clinton, Barak Obama, Margaret Tetcher, Nelson Mandela, Vangari Mathari, Islom Abdug‘aniyevich Karimov, Shavkat Miromonovich Mirziyoyev*. Nutq kishilik faoliyatining ajralmas bo‘g‘ini ekan, uni inson hayotining ilk davrlaridan boshlab rivojlantirib borish va nutq madaniyati, nutq savodxonligini oshirish keyinchalik notiqlik ko‘nikmasining rivojlanishiga asos bo‘ladi. Qadim Yunonistonda demokratiya tuzumining o‘rnatalishi natijasi o‘laroq, har bir ozod kishi erkin nutq so‘zlash huquqiga ega bo‘lgan va eramizdan avvalgi V asr o‘rtalarida notiqlik san’ati shakllangan. Bu san’atni ilk bor adabiy janr darajasiga ko‘tarib notiqlikka ilmiy yondashgan kishilar sofistlar hisoblangan. Sitsiliya oroli ritorikaning asl vatani hisoblanadi. Qadimgi yunonlar sitsiliyalik Korak hamda Tisiylarni ritorikaning asoschilari deb tan olganlar. Ellinizm davrining olimlari Afinada yashab ijod etgan notiqlardan o‘n nafar notiqli mashhur va ulug‘laridan deb, ritorika tarixini *Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Esxin, Giperd, Dinarx* kabi olimlar bilan bog‘laydilar (2, 18). Afsus bilan tan olishimiz kerakki, nutq ko‘nikmasi nazariyasi va amaliyotining rivojlanishida biz Fransiya, AQSh, Yaponiya, Rossiya kabi davlatlardan ortdamiz. Nutqni rivojlantirish va og‘zaki nutq madaniyati rivojlanishi tarixan tarkib topgan ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog‘liq edi. Hozirgi globallashuv jarayonida ritorika va nutq ko‘nikmasiga jiddiy qiziqish bildirilmoqda. Chunki insonlar nafaqat til haqidagi bilim, shu jumladan, samarali muloqotning ahamiyatini tushunishlari ritorikaga professional bilimlar zarurligini angladilar. Buni nutqiy mahorat va nutq madaniyati muammolari bo‘yicha olib borilayotgan izchil izlanishlar ham tasdiqlamoqda. Oliy o‘quv yurtlarining nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun nutq madaniyatini tashkil etish bilan bog‘liq masalalari yetarlicha ishlab chiqilmagan, bu jarayonda shakllanish va yangilanish

davom etmoqda. Bo'lajak pedagoglarning nutqiy ko'nikmasini rivojlantirish o'quv jarayoni, ya'ni darslarni sifat va mazmun jihatdan boyitishda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Adabiyotlar sharhi. Muloqot ko'nikmasi termini (communicative competence) ilk bor 1972-yil amerikalik olim D. Xayms tomonidan ishlatalgan bo'lib, lingvistik kompetensiyani turli muloqot vaziyatlarida qo'llay olish qobiliyati deb ta'rif bergan. Uning ta'kidlashicha, muloqot kompetensiyasi suhbat davomida tildan foydalana olish, tilni turli ijtimoiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatidir (10). Bu soha haqida ilk ma'lumotlarni tahlil qilgan olimlar — S. I. Ibrohimov, Q. X. Xonazarov, R. Qo'ng'uров, E. Begmatov, N. Maxmudov, A. G'ulomov, B. Qobilova, S. Inomxo'jayev, A. Zunnunov, N. Bekmirzayev jamiyatda sotsial muloqotning samaradorligini oshirish yo'lida ritorikani zamonaviy fan sifatida lingvistik va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga samarali hissa qo'shdilar. Ritorikaga oid mashhur asarlar falsafa fanlari doktori, rus va lotin adabiyoti professori Nikolay Fedorovich Koshanskiy (1781–1831) tomonidan yozilgan "Umumi ritorika" va "Maxsus ritorika" asarlari bo'lib, ular 7 martadan qayta nashr etilgan va uzoq yillar o'rta maktab va litsey o'quvchilariga o'qitilgan. Koshanskiy asarlarida og'zaki fanlarga alohida urg'u berib, *grammatika; ritorika; she'riyat va estetika* kabi uch guruhga bo'lib, ularni nutq in'omi deb atadi va har birining kuchi, maqsadi, mavzusi va chegarasi bor, deb ta'kidladi (26, 2). Bu tushunchalarni nazariy va og'zaki jihatlarini ajratib ko'rsatadi va ularga o'ziga xos ta'riflar beradi. "Ritorika — o'z fikrini o'ylab topish, tartibga solish va ifodalash haqidagi fan va barcha nasriy asarlarni bilish uchun qo'llanma..." aqlning notiqligi bilan yurakning notiqligi qo'shilsa, ularga qarshilik qiladigan kuch yo'q" (26, 2) Koshanskiy adabiyot amaliyotchisi va nazariyotchisi sifatida ritorikani juda keng talqin qilib, adabiyot o'qitish metodikasidan mustaqil, alohida tushuncha sifatida tatbiq etdi. Umumi ritorikaning maqsadi axloqiy tuyg'ular va aql uyg'unligida fikrlarni to'g'ri yo'lga yo'naltirib, ongning barcha qobiliyatlarini ochib berib, nutqni tinglovchilar qalbida olivjanob tuyg'ularga jonli muhabbat uyg'otish. Ushbu maqsadga erishish uchun notiqqa uchta vosita kerak: 1. *o'qish*, 2. *mulohaza*, 3. *mustaqil mashqlar* (26). Nutq madaniyatiga o'rgatishning mohiyati — talabani "critical thinking", ya'ni tanqidiy fikrashga va "creative thinking", ya'ni yaratuvchanlikka o'rgatgan holda nutqning kompozitsion shakllarini o'rgatishdan iborat. Y.V. Rojdestvenskiy Ritorik ta'limning ikkinchi muammosi, ya'ni nutq madaniyatiga oid o'quv va metodik adabiyotlar yaratish bo'yicha uch toifali tuzilmani taklif qilgan. 1) *umumta'lim tizimida nutq madaniyati*; 2) *maxsus ta'lim tizimida nutq madaniyati*; 3) *oliy ta'lim tizimining filologik yo'nalishlariga nazariy fan sifatida*. Shuningdek Y. V. Rojdestvenskiy fikricha, pedagogik ritorika ikki katta muammoni o'rganadi: 1) ritorika mifiklarni yaratish; 2) pedagoglar nutqini rivojlantirish. Ushbu maqolada nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi o'quv adabiyotlar va metodik vositalar taklif qilinadi. Binobarin, bizning maqsadimiz pedagogik muloqot jarayonlari, dars mavzusи, maqsadi,

darajasiga qarab nutq faoliyati mahsuloti sifatida muloqotning tarkibiy qismlarini yaratishda pedagogik kommunikativ ko'nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi, bo'lajak pedagoglarning nutq qobiliyatini lingvistik professionallar bilan birgalikda qobiliyatlariga muvofiq ravishda yuzaga chiqaruvchi asos bo'la oladigan pedagogik o'quv dasturi va metodlar majmuyini yaratishdir. SLAning pedagoglarga mo'ljallangan mazmuni F. Mayls va R. Mitchellning "Second Language Learning Theories" (11), Vivian Cookning "Second Language Learning and Teaching" (20), James Screvenering "Learning Teaching" (16), Rojer Boversning "Language Teacher Education" (13), S. Krashenning "Second Language Acquisition and Second Language Learning" (25) kitoblarida bat afsil tushuntirilgan bo'lsa, M. Lewisning "How to study Foreign Languages" (11), Rubin va Tompsonning "How to be a More Successful Language Learner" asarlarida esa (15) SLA mazmunini chet tilini o'rganuvchilarining o'zlariga tushuntirib, ular o'z o'rganish jarayonida tatbiq etishlari modeli yaratilgan.

S. P. Corderning tadqiqotlarida SLAning chet tilini o'rganuvchi va mahalliy tilda so'zlashuvchi, ya'ni native speakerning nutqini qiyoslab o'rganish — "Error Analysis" texnikasidan foydalandi. Tadqiqot davomida o'rganuvchilarining o'z tili rivojlanishi bosqichlari ajratildi. Tadqiqot natijalaridan endi o'rganuvchilarining til o'rganish jarayoniga bo'lgan hissasi — qanday metodika tanlashi va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqqan farqlar o'rganildi (5).

Maykl Tomaselloning SLA ga kognitiv psixologiya va ta'limiy tadqiqotlar uyg'unligi asosida yondashuvlari til nazariyasiga ikkinchi tilni o'qitishda "Task-based learning" ya'ni, topshiriqqa asoslangan o'qitish metodikasiga zamin yaratib, lingvodidaktika rivojida salmoqli hissa qo'shdi (19).

Bilingualizm ya'ni ikki tilda muloqot qila olish haqida o'tgan asrning elliginchi yillarida salbiy fikrga ega bo'lganlar. Tompson "ikki tilli muhitda tarbiyalangan bola ruhan majruhdir" (18); yoki, daun sindromining sabablari ko'rsatilgan boshqa bir risolada ikki tilli muhit bolani chalkashlikka oxir-oqibat ruhiy o'zgarishga olib kelishi yozilgan (15), afsuski hozirgi kunda ham mana shunday xato farazlar saqlanib qolgan bo'lsa-da, 1960-yillardan boshlab tadqiqotlar bilingualizmning ijobiy ta'sirini ko'ra boshladi.

Ikki tilda muloqot qilishni o'rganayotgan insonlarda so'zlearning semantik va fonetik tomonlarini ajratishda, obyektlarni tasniflashda kamroq qiyinchilikka duch kelishadi, bilingual insonlarda chalkashlikdan ko'ra kreativ g'oyalar ko'proq tug'iladi, ularda yetuklik tezroq sodir bo'ladi, boshqa madaniyatlar va irqlarni qadrlashni o'rganadilar (20).

Ellen Bialystok tomonidan 2004-yilda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra (3), bilingual, ya'ni ikki tilda muloqot qiluvchi insonlar keksayganda, altsgeymer kasalligiga kamroq chalinadi.

R. M. Diaz (7) o'z tadqiqotlari natijasini qisqacha shunday ifodaladi: "ikki tilni o'rganish inson rivojlanishi uchun muhim vositadir".

R. G. Lendrining tadqiqotlariga ko'ra, bilingual insonlarda monolingual (bir tilda so'zlashuvchi) insonlarga qaraganda miyaning moslashuvchanlik funksiyasi yaxshiroq ishlaydi (10).

Metodologiya. Bugungi kunda xorijiy davlatlar bilan bevosita aloqaning mavjudligi, ta’lim va fanning jadal rivojlanayotganligi, maktab va maorif hayotiga chet mamlakatlardan juda ko‘p yangiliklar kirib kelayotganligi bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ingliz tilidagi bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishni, ularning sohaga oid axborotlarni to‘plash, kerakli ma’lumotlarni asliyatda o‘qish, boshlang‘ich ta’lim jarayoniga oid terminlarni o‘rganish va ulardan kasbiy sohada foydalanish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Pedagogikada turli o‘qitish usullari va yondashuvlardan biri kompleks yondashuvda ta’lim jarayonini, turli jihatlari va tarkibiy qismlarini o‘z ichiga olgan tizim sifatida ko‘rib chiqishni anglatadi. “Complex” inglizcha so‘z bo‘lib, murakkab degan ma’noni bildiradi. Pedagogikada kompleks yondashuv — o‘quv jarayonining barcha murakkabligi va xilma-xilligini e’tiborga olish zaruriyati g‘oyasiga asoslanuvchi ta’lim. U ta’lim-tarbiyaning turli tomonlarini birlashtirishni, talabalar bilimi rivojlanishida ta’sir ko‘rsatuvchi barcha omillarni hisobga olishni o‘z ichiga oladi. Kompleks yondashuv turli bilim sohalari o‘rtasidagi bog‘liqliklar; ijtimoiy, hissiy, jismoniy sohalarning talabalar rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishi jihatidan, faqat o‘quv fanlari va bilimlar bilan chegaralanmasligini isbotlaydi. Kompleks yondashuv zamонавиy та’limning ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lgan komponentlarini — ta’lim mazmunini, metodlari, ta’limni tashkil etish shakllari, tarbiya qadriyatlari, ta’limni asosiy bosqichlari yoki darajalarini ajratish va tahlil etish ahamiyatli sanaladi. Ushbu yondashuvni qo‘llash orqali turli ta’lim tizimlarini u yoki bu asosini o‘zaro taqqoslash mumkin bo‘ladi. Turli ta’lim tizimlarini taqqoslash uchun zamонавиy ta’lim tarkibiy tuzilmasiga kiruvchi ta’lim va tarbiya maqsadi muhim ahamiyatga ega. “Pedagogikada kompleks yondashuvning asosiy g‘oyasi — ta’lim yaxlit va real hayot bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Talabalar o‘quv fanlari o‘rtasidagi bog‘liqlik va ularning real hodisalarda qo‘llanishini ko‘rishlari kerak. Shuningdek, kompleks yondashuv har bir talabaga uning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual yondashishdir” (21). Oliy ta’lim muassasalaridagi nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida xorijiy tildagi ta’lim jarayoni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutq kompetensiyalarini, shu jumladan, yozma va og‘zaki nutq (yozish, gapirish) ko‘nikmalarini rivojlantirishda jarayonni kasbga yo‘naltirishni taqozo etadi. Xususan, kelajakda kichik maktab yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya beruvchi talabalar, ta’lim jarayonida xorijiy tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini o‘z kasb sohasi yuzasidan rivojlantirishlari, maxsus kasbga oid atamalardan muloqot jarayonida erkin foydalanishlari talab etiladi. Lekin boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining boshqa nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalaridan ingliz tilidagi bilim darajasi farqlanishini ko‘zda tutgan holda, ularning og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini kasbga oid rivojlantirishda alohida yondashuv talab etiladi. Shu boisdan mazkur ishimizda kasbga yo‘naltirilgan og‘zaki nutqni rivojlantirishni kompleks yondashuvga tayangan holda olib borish zaruriyatiga ahamiyat qaratdik. Nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining nutqiy ko‘nikmalarini kompleks yondashuv asosida rivojlantirishning bir qator afzalliklari bo‘lib, ular quyidagicha: integratsiyalashgan yondashuv turli bilim sohalari va mavzularini birlashtirish orqali talaba uchun boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan turli fanlar o‘rtasidagi

munosabatni yaxshiroq tushunishga yordam beradi; talabalar ma'lumotlarni tahlil qilish, muhimlarini ajratish, turli fikrlarni solishtirish va asosli qaror qabul qilish orqali kelajakda va ish faoliyatida yordam beruvchi muhim ko'nikmalardan biri — "critical thinking", ya'ni tanqidiy fikrlashni o'rganadilar;

Ta'lim jarayoniga kompleks yondashuvning kamchiliklari ham yo'q emas, masalan, uni amalga oshirish qiyinchilik tug'diradi. Integratsiyalashgan yondashuvni amalga joriy etish o'qituvchilardan katta kuch va qo'shimcha resurslarni talab qiladi. Integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirishda ko'p vaqt talab etiladi. Shu munosabat bilan o'qituvchilar vaqt cheklovlariga duch kelishlari mumkin. Pedagogikaga kompleks yondashuv ta'lim jarayonini barcha murakkabligi va xilma-xilligi bilan ko'rib chiqishga imkon beruvchi muhim vositadir. Ammo kompleks yondashuv zamonaviy o'qitish amaliyoti uchun muhim vosita bo'lib, uni qo'llashda talabalarning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olish va o'rganish, ta'lim jarayonini to'g'ri rejalashtirish va tashkil etish samarali natijalarga olib keladi, shu bois biz talabalarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoniga kompleks yondashuvni tatbiq qildik.

Integratsiyalashning asosiy mazmuni chet tilini mutaxassislik fanlari bilan bog'langan holda o'qitishning mazmuni, shakli va vositalarni J. Dadamirzayev va Q. Fayzullayev tomonidan tadqiq qilingan (6, 34–36).

A. Hasanov tomonidan fanlararo aloqa shunday tasniflangan:

- 1) bo'lajak mutaxassis dunyoqarashining shakllanishiga yordam beruvchi metodologik va konseptual aloqadorlik;
- 2) bilim va malakaning dolzarblashuvini ta'minlaydigan mazmunga ega fanlararo aloqadorlik;
- 3) bo'lajak mutaxassisning kasbiy muhim shaxsiy sifatlari shakllanishiga qaratilgan tarbiyaviy aloqadorlik;
- 4) o'rganilayotgan fanning bo'lajak kasbiy faoliyat elementlari bilan aloqalariga tayanadigan metodik aloqadorlik (21, 50).

Ushbu aloqadorlikni amalga oshirish, chet tilini o'qitish mazmuni, shakli va vositalarini mutaxassislik fanlari bilan uzviy bog'lanishni taqozo etadi va bular quyidagilar:

- 1) turli o'quv dasturlarida mavzularni o'rganishda bir-birini takrorlashning yo'qotilishi;
- 2) alohida masalalarni o'rganish vaqtini kelishtirish imkoniyati;
- 3) ilmiy tushunchalarini ta'riflash-tavsiflashda o'xshashlik va ularning qarama-qarshi emasligi;
- 4) turli fan o'qituvchilarni salohiyatining o'quvchilarda ilmiy tushuncha tasavvurlarni shakllantirishda, ularga amaliy mahorat va ko'nikmalarini singdirishda birlashtirilishi;
- 5) turli o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilar olgan ilmiy va texnik bilimlardan o'qituvchilar tomonidan o'zaro foydalanish;
- 6) o'quv fanlarning o'ziga xosligi va ular o'rtasidagi aloqalarning xususiyatlari bilan shartlangan boshqa pedagogik vazifalarning bajarilishidan iborat (22, 9–14).

Demak, yuqorida fikrlar ingliz tilini boshlang'ich ta'lim yo'nalishi mutaxassislik fanlariga bog'lab o'qitishning ijobiy samaradorlikka ega ekanligiga asos bo'ladi. Hozirgi kunda ingliz tili qaysidir davlatning tili

emas, balki xalqlararo ko‘prik, soha egalarini iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda bog‘lab, o‘zaro kommunikatsiyani yaratuvchi vosita hisoblanadi. Ko‘rinadiki, talabalarning sohaviy chet tilini o‘rganishlari va kasbiy-kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lishlari ularning:

- chet tili vositasida sohaga oid ma’lumotlarni olishlari va ularni mahalliy adabiyotlarga qiyoslashlari;
- chet tilini egallash orqali kelajakda munosib ish o‘rniga ega bo‘lishlari;
- chet el safarlariga chiqa olishlari;
- chet eldagi ilmiy seminarlar va anjumanlarda qatnashish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Turli soha vakillarining chet tiliga ehtiyojlari turlicha bo‘lib, aynan boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi mutaxassislarining chet tilida kasbiy muloqot ehtiyojiga quydagilarni kiritish mumkin:

- chet el ta’lim tizimi vakillari bilan onlayn yoki oflayn muloqot qila olish;
- sohaga oid mavzularda savol-javob qila olish;
- kasb faoliyati doirasida yozishmalar yoza olish;
- xorijiy bolalar adabiyotini o‘qib tushunish va tarjima qila olish;
- konferensiya, vebinarlarda ma’ruzalar va og‘zaki yoki yozma savol-javoblar qila olish.

XIX asrning so‘nggi choragida, XX asrda sodir bo‘ladigan til o‘rganish va o‘qitish sohasida katta ta’sir ko‘rsatuvchi keskin burilishlar sodir bo‘ldi. Bu o‘zgarishning mazmuni xorijiy tilni o‘rganishda keng tarqalgan nazariy grammatik qoidalarni o‘rganish va matnlarni tarjima qilish **sun’iy va samarasiz metodlar** deb topildi. Til o‘qitish bo‘yicha ekspertlar Genri Svit va Otto Jespersonlar xorijiy til **tabiiy ravishda**, hech qanday nazariy qoidalarsiz, faqat chet tilida eshitish orqali o‘rganish muhimligi haqidagi nazariyani tanishtirdilar. Bu nazariyalar chet el pedagoglari uchun oddiy singdirilgan bo‘lib, ular nazariy grammatika va matn tarjima qilish samarasiz degan xulosaga kelganlar, xuddi shu vaqtida, bizning yurtimizda til o‘rganuvchilarning asosiy qismi mana shu metodlardan foydalanib kelingan va bu hol hozir ham davom etmoqda. Chunki 2020-yilgacha oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun chet tilidan imtihonlar test shaklida bo‘lib, talabgordan faqat nazariy grammatik bilimlar va matn tarjima qilish ko‘nikmalari talab qilinar edi. Ammo O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydag‘i 395-sun qaroriga ko‘ra, 2019–2020-o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish sinovlarida chet tilidan talab darajasidagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega talabgorlarga ushbu fandan imtihonlarsiz belgilangan maksimal bell berilishi maktab bitiruvchilari orasida chet tilidan og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirishga qiziqishni oshirdi (30). 2016-yilda Britaniya Kengashi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan hamkorlikda nofilologik ta’lim yo‘nalishlari o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlarini ingliz tilini maxsus maqsadlarda o‘qitishga qaratilgan EnSPIRe-U (English for specific purposes, integrated reform in Uzbekistan) dasturini ishga tushirdi (28). Tajriba loyihasida ishtirok etish uchun yurtimizdag‘i 31 ta oliy ta’lim muassasalari, shu jumladan, tajriba-sinov ishlari olib borilgan Qarshi

davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti va Termiz davlat universitetlari taklif qilindi. Loyiha ingliz tilini nofilologik ta'lism yo'nalishlarida maxsus maqsadlarda, ya'ni, talabalarning kasbiy layoqatini rivojlantirishga qaratilgan yaxlit yondashuvni ishlab chiqib, O'zbekiston baholash mezonlari va baholash bo'yicha milliy ekspertlarni shakllantirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldag'i PQ-53-soni qaroriga ko'ra, 2024-yil yakuniga qadar umumiy o'rta ta'lism muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini oshirish maqsadida ingliz, koreys, nemis, fransuz, xitoy, yapon tillari bo'yicha malakali mutaxassislar jalb qilinadi (32). Chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish talabalar qatlami orasida oshib bormoqda. Nofilologik ta'lism yo'nalishi talabalari orasida chet tillardan asosan ingliz tili, rus tili, shuningdek arab tili, ispan, xitoy, yapon, koreys tillarini o'rganayotganlar mavjud. Abram de Swaan tomonidan 2001-yilda tuzilgan eng ko'p o'rganilayotgan tillar iyerarxiyasini shunday tasniflaydi (20):

Periferik til (peripheral) — ma'lum bir hududda faqat ona tilida gaplashuvchilar tomonidan gaplashiladigan til, masalan, butun Uels hududlarida gaplashiladigan uels tili;

Sentral til (central) — bir hududda ham ona tilida so'zlashuvchilar, ham boshqa millat vakillari tomonidan ta'limiyl va siyosiy maqsadlarda qo'llaniluchi til, masalan, nemis tili butun Germaniyada barcha millat vakillari tomonidan foydalilanishi;

Supersentral til (supercentral) — dunyoning turli burchaklarida mahalliy aholi va mahalliy bo'limgan fuqarolar tomonidan ma'lum maqsadlarda foydalilaniladigan til, masalan, diniy marosimlar uchun arab yoki lotin tili;

Gipersentral til (hypercentral) — butun dunyo bo'ylab asosan o'zga tilli insonlar tomonidan global darajada foydalilanadi. Bugungi kunda bitta gipersentrik til mavjud — ingliz tili (20). Bir mamlakat hududida turli tillar bo'lishi ham mumkin, masalan, Hindistonda ikkita supersentral til — hindi va ingliz; 18 ta sentral til masalan, gujarati va sidhi (barchasi rasmiy maqomga ega); va 780 ta periferik tillar mavjud. Abram de Svan ta'kidlashicha, insonlar chet tilini pastdan tepaga qarab — periferik tildan gipersentral tilga tomon o'rganib boradilar (20). Tillarning bunday darajalarga ko'tarilishining sabablari turlicha va munozaralidir. Bir tomondagilar bunga mustamlakachilarning ta'siri deb hisoblasa (13), boshqalar ijtimoiy qatlamlarning o'z tanlovi deb hisoblashadi (4). Nofilologik ta'lism yo'nalishi talabalarimizning aynan ingliz tilidagi ko'nikmalarini rivojlantirishni tanlaganimizning sababi, ingliz tili bugungi kunda mahalliy til darajasidan gipersentral darajagacha chiqdi. Shu boisdan, ingliz tilga xalqaro til sifatida "lingua franca" (English as lingua franca. — ELF) maqomi berilib, bu turli millat vakillari doirasida ishlataladigan umumiy muloqot vositasini anglatadi. Bugungi kunda turizmning 74%i ingliz tilida o'tkazilmoqda, professional futbolchilar, savdogarlar, operatorlar, olimlar, uchuvchilar, hatto dengizchilar uchun lingua frankada muloqot qilish kasbiy zarurat hisoblanmoqda (20). Bu zaruratni bajarishda SLA (Second Language Acquisition — Ikkinchi tilni o'rganish) metodologiyasini tatbiq qilish samarali natijaga ega, chunki SLA metodologiyasi XXI asr talabi bo'lgan chet tilini o'rganishga aniq va

ishonchli pedagogik texnologiyalar, yondashuvlar, o‘rganuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilingan o‘qitish metodlari, ta’limiy texnikalar majmuyidir.

Natijalar. Zamonaviy o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga quyidagi tizimli yondashuv ularning nutqiy ko‘nikmasini rivojlantirishga yordam beradi — 1) oliv o‘quv yurtlarida yozma va og‘zaki nutq sohasida talabalarining kommunikativ ko‘nikmalarining keng doirasini shakllantirish va takomillashtirishga e’tibor qaratish; 2) pedagogikaga nutqqa oid turlicha yondashuvlar shakllangan bo‘lsa-da, nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining chet tilini o‘rganish jarayonida nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha batafsil asos ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Darhaqiqat, ta’limiy g‘oyalar tarixi taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham shaxs nutqini o‘stirishga alohida e’tibor berib kelingan. Ayniqsa, notiqlik san’atining eng yuksak bosqichlar — qadimgi Rim va Gretsiyada yosh avlod nutqini rivojlantirish, ularda nutq, so‘z kuchi yordamida ijtimoiy subyektlarga ta’sir o‘tkazish, hatto, ijtimoiy guruhlarni ta’sirchan, yuqori darajada hissiy-estetik bayon etilgan nutq yordamida boshqarish qobiliyatini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lishiga erishilgan.

Ushbu aloqadorlikni amalga oshirish, chet tilini o‘qitish mazmuni, shakli va vositalarini mutaxassislik fanlari bilan uzviy bog‘lanishni taqozo etadi va bular quyidagilar:

- 1) turli o‘quv dasturlarida mavzularni o‘rganishda bir-birini takrorlashning yo‘qotilishi;

- 2) alohida masalalarni o‘rganish vaqtini kelishtirish imkoniyat;

- 3) ilmiy tushunchalarni ta’riflash-tavsiflashda o‘xshashlik va ularning qarama-qarshi emasligi;

- 4) turli fan o‘qituvchilarni salohiyatining o‘quvchilarda ilmiy tushuncha tasavvurlarni shakllantirishda, ularga amaliy mahorat va ko‘nikmalarni singdirishda birlashtirilishi;

- 5) turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quvchilar olgan ilmiy va texnik bilimlardan o‘qituvchilar tomonidan o‘zaro foydalanish;

- 6) o‘quv fanlarning o‘ziga xosligi va ular o‘rtasidagi aloqalarning xususiyatlari bilan shartlangan boshqa pedagogik vazifalarning bajarilishidan iborat (22,14).

Demak, yuqoridagi fikrlar ingliz tilini boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi mutaxassislik fanlariga bog‘lab o‘qitishning ijobiy samaradorlikka ega ekanligiga asos bo‘ladi. Hozirgi kunda ingliz tili qaysidir davlatning tili emas, balki xalqlararo ko‘prik, soha egalarini iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda bog‘lab, o‘zaro kommunikatsiyani yaratuvchi vosita hisoblanadi.

Muhokama. Nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligida nutq madaniyati hamda stilistika birdek muhim, shuning uchun ularning vazifalarini aniqroq belgilash muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda, garchi bu fanlarni o‘rganishda umumiyligida nutqshunoslik yo‘nalishini tashkil qilish lozim. Nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining zamonaviy adabiy nutqining barcha me’yorlarini, pedagogik xususiyatlarini, professional uslublarini mukammal egallashini ta’minlash,

pedagogik muloqot sharoitida talabalar bilan o‘zaro maqbul tushunishni ta’minlaydi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quvchilar oldida ma’ruzachi sifatida namoyon bo‘lishadi, darsning tarbiyaviy ta’siri uning og‘zaki mashg‘ulotlar, hikoya qilish, ifodali o‘qish, asosli va dalillarga asoslangan bahsga kirishish qobiliyatiga bog‘liq. O‘quvchilar o‘qituvchining hayajonli nutqini eshitadigan dars mashg‘ulotining hissiy ta’sirini inkor etib bo‘lmaydi. Qolaversa, bo‘lajak pedagoglar nutqida mantiqiylik, aniqlik, uyg‘unlik, izchillik, ta’sirchanlik kabi fazilatlar ustunlik qilishi uchun nofilologik ta’lim yo‘nalishi boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining nutqiy ko‘nikmalarini kompleks yondashuv asosida maqsadli rivojlantirish zarur. Ritorika nazariyasining ko‘p asrlik rivojlanish yo‘lida ikki yondashuv kuzatilgan va uyg‘unlashtirilgan. Bir yondashuv ritorikaga fan sifatida qaraydi. Shu munhosabat bilan ritorika nazariyasida notiqlik me’yorlari, tamoyillari, uslublari va qoidalari ishlab chiqildi. Boshqa tomongan, ritorika san’at sifatida qaraldi, bu yerda improvizatsiya, ijodkorlik va notiqlik mahoratini doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan (23, 182). Bu yondashuvlar integratsiyasi bilan bir qatorda nutqqa oid bilimlarning tasniflanishi ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ilmiy adabiyotlarda “an’anaviy ritorika”, “adabiy ritorika”, “ritorika mantig‘i”, “biznes ritorikasi”, “pedagogik ritorika” kabi tushunchalar mavjud. Pedagogik ritorika o‘zining an’anaviy va yetakchi mezonlariga ko‘ra “samarali muloqotga o‘rgatishi kerak” (27, 6) va asosan diskurs, psixolingvistika, stilistika, psixologiya nazariyalariga asoslanadi. Pedagogik ritorika ijtimoiy me’yor va axloqiy ideal tushunchalari asosida ta’sirchan nutq yaratish va bunday matndan samarali pedagogik muloqot maqsadlarida foydalanish amaliyotini o‘rganadi. Shu nuqtayi nazardan, u zamonaviy jamiyat tomonidan o‘rganish obyekti sifatida allaqachon talab qilinmoqda va unga qiziqish darajasi oshib bormoqda. Nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligida nutq madaniyati, stilistika va ritorika bir xil darajada muhimdir, shuning uchun ularning vazifalarini, o‘rganilayotgan til materialining o‘ziga xos masalalarini aniqroq belgilash lozim. Shuningdek, ushbu uchta yaqin, ammo turlicha nutq fanlarining tadqiqot va ta’lim vazifalarini talabaning kasbga oid nutqini rivojlantirishga yordam beruvchi va kelajakda chet tilidan gapirish ko‘nikmasini kamida B2 darajaga olib chiqishga yordam beruvchi dasturni optimal muvofiqlashtirish muammozi oldimizda turibdi.

O‘rgatishning lingvistik asoslarini aniqlashda ikki yo‘l mavjud. Birinchi yo‘l — mavjud lingvistik tushunchalar bilan tanishish va til o‘qitish muammolarini hal qila oladigan nazariyani ongli ravishda tanlash. Tanlangan yoki tuzilgan nazariyaning qonuniy va maqsadga muvofiqligi, uni o‘qitish ehtiyojlari bilan bog‘liq imkoniyatlar o‘qitish maqsadlari bilan belgilanadi. Ikkinci yo‘l — “allaqachon tashkil etilgan ta’lim tizimiga nisbatan yangi paydo bo‘lgan konsepsiya yoki taklif qilingan tavsifdan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash...” (24, 250) bizning fikrimizcha, uchinchi yo‘l ham mavjud bo‘lib, ikki yo‘lni sintez qilish — nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalariga ilmiy nutqni o‘rgatish maqsadlariga mos keladigan nazariyani qurish yoki tanlash; metodologiya tomonidan hali talab qilinmagan, ammo taqdim etilishi dolzarbligi aniq bo‘lgan yangi tushunchalardan foydalanish, ushbu maqsadga erishishning eng samarali

usuli sifatida tegishli o‘qitish tizimini yaratish. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy layoqatini ingliz tilini o‘rganish jarayonini rivojlantirish jarayonida bir qator vazifalar mavjud bo‘lib, bular:

1) har qanday muammoli holatga moslashtirilishi va qo‘llanishi mumkin bo‘lgan zamonaviy, moslashuvchan materiallar modelini ishlab chiqish;

2) o‘quv materiallari asosida va o‘quv rejasi dasturiga mos keladigan xalqaro standartlarga (cefr, ielts) muvofiqlashtirilgan baholash usullari va mezonlarini ishlab chiqish;

3) yangi o‘quv dasturlari asosida o‘quv-uslubiy materiallarni loyihalash va yangi metodologiyalarni joriy etish bo‘yicha interfaol o‘quv tadbirlarini ishlab chiqish va o‘tkazish;

4) nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining ingliz tilini bilish darajasini oshirish;

5) sohaga oid malakalarni oshirish bo‘yicha zamonaviy metodologiya va treningni o‘z ichiga olgan holda kurs materiallarini samarali yetkazib berish orqali o‘qitish va o‘qitishni yaxshilash;

6) talabalarning og‘zaki va yozma nutqini rag‘batlantirish uchun turli interfaol strategiyalardan foydalanish.

Shu o‘rinda, til o‘qitish fanining yetuk mutaxassislaridan biri Garold Palmerning fikrini keltirish o‘rinli bo‘lardi: “Chet tilini o‘qitish nazariyasini yaratish uchun yangi kashfiyat qilish shart emas, barchaga ma’lum bo‘lgan faktlarni to‘plash va bitta keng qamrovli tizimda muvofiqlashtirish yetarli”.

Xulosa

Nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalariga chet tilini o‘rgatish mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturiga mos bo‘lishi, asosiy o‘quv fanlari bilan integratsiyalashgan bo‘lishi, ushbu yo‘nalish o‘ziga xosliklarini, o‘quv jarayonining xususiyatlarini, talabalarning talab va qiziqishlarini o‘zida aks ettirishi kerak. Oliy ta’lim muassasalaridagi nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida xorijiy tildagi ta’lim jarayoni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutq kompetensiyalarini, shu jumladan, yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda jarayonni kasbga yo‘naltirishni taqozo etadi. Xususan, kelajakda kichik maktab yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya beruvchi talabalar, ta’lim jarayonida xorijiy tildagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini o‘z kasb sohasi yuzasidan rivojlantirishlari, maxsus kasbga oid atamalardan muloqot jarayonida erkin foydalanishlari talab etiladi. Lekin boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining boshqa nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalaridan ingliz tilidagi bilim darajasi farqlanishini ko‘zda tutgan holda, ularning og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini kasbga oid rivojlantirishda alohida yondashuv talab etiladi. Shu boisdan boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid o‘quv-uslubiy materiallar talabalarning real ehtiyojlari va hayotiy muammolarni hal qilishni ko‘zda tutib, kompleks yondashuvning yaxlitilik, kontekstuallik, individuallik, hamkorlik, reflektivlik kabi tamoyillarini o‘zida aks ettirishi o‘qituvchi — talaba — dars uchligining sifatli ta’lim jarayonini tashkil qilishini ta’minlaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva F. N. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabop maqolalarni o‘qitishning metodik imkoniyatlari: Pedagogika fan. fal. dok. (PhD) ...diss, 2022. — 145 b.
2. Bekmirzayev N. Notiqlik san’ati asoslari. — Toshkent: Yangi nashr, 2008. — 420 b.
3. Bialystok, Ellen; Raluca Barac (March — April 2012). Bilingual Effects on Cognitive and Linguistic Development: Role of Language, Cultural Background, and Education. *Child Development*.
4. Canagarajah, S. Reconstructing local knowledge, reconfiguring language studies. In A. S. Canagarajah (Ed.), *Reclaiming the local in language policy and practice*. Lawrence Erlbaum Associates Publishers. 2005. — p. 3–24
5. Corder S.P. Error Analysis and Interlanguage. Oxford: Oxford University Press, 1981. — 117 p.
6. Dadamirzayev G. Fayzullayev Q. Fanlararo bog‘lanishning muhandislik ta’limidagi o‘rni // Xalqaro ilmiy jurnal. Pedagogika fanlari. — M., 2016. — № 1. — B.34-36.
7. Diaz R. M. The intellectual power of bilingualism. Quarterly Newsletter of the Laboratory of Comparative Human Cognition. — 1985. — No 7. — P. 16–22.
8. Hymes D. H. on communicative competence. In pride, J, B & Holmes. Sociolinguistics. Baltimore, USA. Penguin Books, 1972. — P. 269-293.
9. Krashen S. Second Language Acquisition and Second Language Learning. Oxford: Pergamon, 1981. — 154 p.
10. Landry R. G. (1974) A comparison of second language learners and monolinguals on divergent thinking tasks at the elementary school level. *Modern Language Journal* 58. — P. 10—15.
11. Lewis, M. (1999) How to Study Foreign Languages. Basingstoke: Macmillan. —272 p.
12. Myles F., Mitchell R. Second Language Learning Theories, 2nd edition. — London: Edward Arnold, 2004. —120 p.
13. Phillipson R. *Linguistic Imperialism*. Oxford: Oxford University Press, 1992. — 365 p. — URL: <https://www.researchgate.net/DOI:10.1002/9781405198431.wbeal0718.pub2>
14. Roger Bowers. Language Teacher Education. — London, 1987. — Pp. 393–410. — URL: <https://citeseerx.ist.psu.edu/document?repid=rep1&type=pdf&doi=0717b5de1d98e6b827c0f273c885792d33a98f55>
15. Rubin J., Thompson I. How to Be a More Successful Language Learner. Boston Studies in the Humanities 12. — Boston, MA: Heinle & Heinle, 1982. — p 120.
16. Scrivener Jim. Learning Teaching. — Macmillan, 2009. — 429 p.
17. Streets L. I Can Talk. — London: Down’s Syndrome Association, 1976, reprinted 1991. — 130 p.
18. Thompson G.G. Child Psychology. — Boston, MA: Houghton Mifflin, 1952. — 667 p.
19. Tomasello M. Constructing a Language. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 2003. — 408 p.

20. Vivian Cook. Second language learning and language teaching. — Malta, Hodder education, 2008. — 229 p.
21. Xasanov A.A. Kasb hunar kollejlarida o‘quvchilarni fanlararo aloqadorlik vositasida kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi: ped. f.f.d avtoreferat. — T., 2018. 13.00.05.
22. Xasanov A.A. O‘qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning psixologik-pedagogik aspektlari. — T.: Zamonaviy ta’lim, 2018.
23. Апресян Г. З. Ораторское искусство. — М., 1978. — 278 с.
24. Быстрова Е. А. Лингвистические основы фразеологической работы в национальной школе //Лингвистические основы преподавания языка: Сб. ст. — М.: Наука, 1983. — С. 248–257.
25. Колесникова Н. И. Лингвометодические основы развития научной речи студентов нефилологических вузов: Дисс. ...канд.пед.наук. — Новосибирск, 1999. — 245 с.
26. Кошанский Н.Ф. Общая риторика. 7 изд. — СПб., 1842. — С. 118.
27. Ладыженская Т. А., Сорокина Г. И., Сафонова И. В., Ладыженская Н. В. Детская риторика в рисунках, стихах, рассказах. Метод. рекомендации / Под ред. Т. А. Ладыженской. — М.: Просвещение, 1995. — 96 с.
28. <https://www.britishcouncil.uz/en/teach/english-specific-purposes>
29. <https://lex.uz/uz/docs/-6787995>
30. <https://lex.uz/docs/-4332249?ONDATE=13.05.2019%2000>
31. <https://yuz.uz/uz/news/prezident-xorijiy-tillarni-orgatish-boyicha-kelajak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni-yolga-qoyish-vaqtি-soati-keldi>

References

1. Abdullaeva F. N. *Boshlangich sinf ona tili va uqish savodkhonligi darslarida ilmii-ommabop makolalarni ukitishning metodik imkoniyatlari* (Methodological possibilities of teaching scientific and popular articles in the classes of mother tongue and reading literacy of primary grade Pedagogical science. Height. Horoscope), Candidate’s thesis (PhD), 2022, 145 p.
2. Bekmirzayev N. *Notiklik sanati asoslari* (Fundamentals of public speaking) Toshkent: Yangi nashr, 2008, 420 p.
3. Bialystok, Ellen; Raluca Barac (March–April 2012). *Bilingual Effects on Cognitive and Linguistic Development: Role of Language, Cultural Background, and Education. Child Development.*
4. Canagarajah S. *Reconstructing local knowledge, reconfiguring language studies. In A. S. Canagarajah (Ed.), Reclaiming the local in language policy and practice. Lawrence Erlbaum Associates Publishers*, 2005, Pp. 3–24.
5. Corder S.P. Error Analysis and Interlanguage. Oxford: Oxford University Press, 1981, 117 p.
6. Dadamirzayev G. Fayzullayev Q. *Pedagogika fanlari*, 2016, No 1, Pp.

34–36.

7. Diaz R. M. *Quarterly Newsletter of the Laboratory of Comparative Human Cognition*, 1985, No 7, P. 16–22.
8. Hymes D. H. *On communicative competence. In pride, J, B & Holmes. Sociolinguistics. Baltimore, USA*. Penguin Books, 197, P. 269–293.
9. Krashen S. *Second Language Acquisition and Second Language Learning*. Oxford: Pergamon, 1981. — 154 p.
10. Landry R. G. *Modern Language Journal*, 1974, No 58, P. 10–15.
11. Lewis M. *How to Study Foreign Languages*, Basingstoke: Macmillan, 1999, 272 p.
12. Myles F., Mitchell R. *Second Language Learning Theories, 2nd edition*, London: Edward Arnold, 2004, 120 p.
13. Phillipson R. Linguistic Imperialism. Oxford: Oxford University Press, 1992, 365 p., available at: https://www.researchgate.net/DOI:10.1002/9781405198431.wbeal0718.pu_b2
14. Roger Bowers. *Language Teacher Education*, London, 1987, pp. 393–410, available at: <https://citeseerx.ist.psu.edu/document?repid=rep1&type=pdf&doi=0717b5de1d98e6b827c0f273c885792d33a98f55>
15. Rubin J., Thompson I. *How to Be a More Successful Language Learner. Boston Studies in the Humanities 12*, Boston, MA: Heinle & Heinle, 1982, 120 p.
16. Streets L. *I Can Talk*. London: Down's Syndrome Association, 1976, reprinted 1991, 130 p.
17. Scrivener Jim. *Learning Teaching*, Macmillan, 2009, 429 p.
18. Thompson G.G. *Child Psychology*, Boston, MA: Houghton Mifflin, 1952, 667 p.
19. Tomasello M. *Constructing a Language*, Cambridge, MA: Harvard University Press, 2003, 408 p.
20. Vivian Cook. *Second language learning and language teaching*, Malta: Hodder education, 2008, 229 p.
21. Apresyan G. Z. *Oratorskoe iskusstvo* (Oratory art), Moscow, 1978, 278 p.
22. Bystrova E. A. *Lingvisticheskie osnovy prepoda-vaniya yazyka*: Sb. St, Moscow: Nauka, 1983, Pp. 248–257.
23. Kolesnikova N. I. *Lingvometodicheskie osnovy razvitiya nauchnoi rechi studentov nefilologicheskikh vuzov* (Linguistic methodological foundations of the development of scientific speech of students of non-philological universities): candidate's thesis, Novosibirsk, 1999, 245 p.
24. Koshanskii N.F. *Obshchaya ritorika* (Public rhetoric, 7 ed.), SPb., 1842, 118 p.
25. Ladyzhenskaya T. A., Sorokina G. I., Cai *Detskaya ritorika v risunkakh, stikhakh, mendatsii / Pod red. T. A. Ladyzhenskoi* (Children's rhetoric in drawings, poems, and malediction / Edited by T. A.

- Ladyzhenskaya), Moscow: Prosveshchenie, 1995, 96 p.
26. Khasanov A.A. *Kasb hunar kollejlarida uquvchilarni fanlararo alokadorlik vositasida kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi* (Methodical system of preparing students for professional activities in vocational colleges by means of interdisciplinary allocations): Extended abstract of candidate's thesis, Tashkent, 2018. 13.00.05.
27. Khasanov A.A. *Uqitish jarayonida fanlararo alokadorlikni amalga oshirishning psikhologik-pedagogik aspektlari* (Psikhological-pedagogical aspects of the implementation of interdisciplinary alocadoriality in the process of promotion), Tashkent: Zamonaviy ta'lim, 2018.
28. <https://www.britishcouncil.uz/en/teach/english-specific-purposes>
29. <https://lex.uz/uz/docs/-6787995>
30. <https://lex.uz/docs/-4332249?ONDATE=13.05.2019%2000>
- 31.<https://yuz.uz/uz/news/prezident-xorijiy-tillarni-orgatish-boyicha-kelajak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni-yolga-goyish-vaqtি-soati-keldi>.